



QIZLARNING TA'LIM OLISH HUQUQI: GENDER TENGLIGI VA KELAJAK AVLOD TARBIYASIDAGI ROLI

Norqulova Nordona Abdurahim qizi

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi
norqulovanordona@gmail.com*

ANOTATSIYA. *Ushbu maqolada qizlarning ta'lim olish huquqi, ularga berilayotgan imkoniyatlar, davlat va jamiyatda qizlarning tutgan o'rni, ahamiyati va mas'uliyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga ayollar va erkaklarning teng huquqi ya'ni gender tengligi va ularning kelajak avlod tarbiyasidagi roli beqiyos ahamiyatga ega. Qizlarning huquqlarini himoya qilishning zamonaviy yondashuvlari va uning amaliyotdagi muammolari o'rganilgan. Ayniqsa, hozirgi kunda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlarga alohida urg'u qaratilgan.*

Kalit so'zlar *ta'lim olish huquqi, qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, davlat, jamiyatning roli, gender tengligi, tarbiya, zamonaviy yondashuvlar, ota-ona, qonuniylik, adolatlilik, teng huquqiylik prinsiplari.*

GIRLS' RIGHT TO EDUCATION: GENDER EQUALITY AND ROLE IN EDUCATION OF THE FUTURE GENERATION

Norqulova Nordona daughter of Abdurahim

*Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
2nd year student of jurisprudence norqulovanordona@gmail.com*

ANNOTATION. *This article analyzes the right of girls to education, the opportunities given to them, the role, importance and responsibility of girls in the state and society. At the same time, the equal rights of women and men, that is, gender equality, and their role in the education of the next generation are of incomparable importance. Modern approaches to the protection of girls' rights and their practical problems are studied. Special emphasis is placed on the opportunities given to women.*

Key words: *the right to education, the opportunities given to girls, the role of the state, society, gender equality, education, modern approaches, parents, legality, justice, principles of equal legality.*





ПРАВО ДЕВОЧЕК НА ОБРАЗОВАНИЕ: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И РОЛЬ В ОБРАЗОВАНИИ БУДУЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Норкулова Нордона дочь Абдурахима

Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Студентка 2 курса юридического факультета

norqulovanordona@gmail.com

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется право девочек на образование, предоставляемые им возможности, роль, значение и ответственность девочек в государстве и обществе. При этом несравненное значение имеют равные права женщин и мужчин, то есть гендерное равенство, и их роль в образовании следующего поколения. Изучены современные подходы к защите прав девочек и их практические проблемы. Особое внимание уделяется возможностям, предоставляемым женщинам.

Ключевые слова: право на образование, возможности, предоставляемые девочкам, роль государства, общества, гендерное равенство, образование, современные подходы, родители, законность, справедливость, принципы равной законности..

Har bir inson ta'lim olish, yashash, so'z, fikr erkinligi huquqiga ega. Bu davlat tomonidan ta'minlanadi. Hozirgi kunda qizlarga juda ko'plab imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda va bu imkoniyatlardan samarali foydalanish har insoning o'z qo'lida. Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarning bilim olishi uchun alohida imkoniyatlar yaratilmoqda, buning sababi oilada qiz farzandning o'qishi kelajakda undan aqimishli insonlar yaralishiga sababchi bo'ladi degan g'oya mavjud. Qiz bolaning bilimga bo'lgan ishtiyoqi, o'g'il bolaga nisbatan yuqoriroq boladi, lekin oilada qizlarga bu huquqdan foydalanish hammasiga ham berilmagan. Ayrim bir otalarni qizlarini o'qimishli, bilimli va yetuk inson bolib yetishiga imkon berishmaydi natijada qizlarning o'z hayotiga bo'lgan ishonchsizligi vujudga keladi. Qiz bola o'g'il bolaga nisbatan sabrli bo'lishi mumkin lekin ulardek kuchli emas, shu uchun ham davlatimiz rahbari qizlarning huquqlarini himoya qilishga doir ko'plab qonunlar qabul qildilar. Ertaga qizlarimiz bizning yuzimizni yorug' qilishsin, birovdan kam bo'lishmasin, davlatimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shishsin degan maqsadda davlatimiz rahbari tomonidan qizlarning ta'limiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalar amalga oshirilib, 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratildi va 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayollar kasb-hunarga yo'naltirilib, o'qitildi. Bundan tashqari 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich to'lovi davlat tomonidan to'lab berildi va 2 ming nafar qizlar alohida grant asosida

oliy ta'limga qabul qilindi. Natijada, o'tgan yilgiga qaraganda qizlarning o'qishga kirish ko'rsatgichi 60 foizini tashkil etdi. Umuman olganda 2020-yildan boshlab, "Ayollar daftari" yani xotin-qizlarni qo'lab quvvatlash tizimi joriy etilib, unga 900 mingga yaqin xotin-qizlar kiritilib, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, psixologik va huquqiy yordamlar berildi.

Hozirgi kunda "Ayollar daftari"da 700 mingdan ziyod xotin-qiz ro'yxatga kiritilgan, ulardan 300 ming nafari ishsiz. Bu ham xotin-qizlarga berilayotgan e'tibordan misol bo'ladi.

– Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda qaysi sohaga qaramang shu sohada qizlarimiz o'z faoliyatlarini olib borayotganlarini uchratishimiz mumkin. Qizlarga berilayotgan imkoniyatlar :

Qizlarning ta'lim olishi uchun davlat tomonidan qo'shimcha kvotalar ajratilganligi, bundan tashqari kantirakka kirgan qizlar bilim olishlari uchun ta'lim krediti joriy etildi. Qizlar 0% li , o'g'il bolalar 14% li. Magistraturaga kantirakka kirgan qizlarning kantiraklari davlat tomonidan to'lab berilishi, turli xil stipendiyalar " Zulfiya " mukofoti, " Hamshira" ko'rik tanlovi , " To'maris izdoshlari" jamoaviy guruh a'zolari uchun imtiyozlar va boshqalar mavjud. Bundan tashqari oliygohda kantirakka o'qiyotgan xotin -qizlarning to'lovini kim to'lashidan qat'iy nazar to'layotgan shaxs daromat solig'idan ozod etilishi ham belgilab qo'yilgan.

Davlat organlariga xotin-qizlarni ishga qabul qilish ko'rsatgichi o'tgan yillarnikiga qaraganda 60% ni tashkil etadi, bu esa bizning davlatimizda ham gender tengligi mavjudligidan dalolat beradi. Gender tengligi- bu erkak va ayollarning teng huquqiyligi hisoblanadi. Barcha sohalarida erkaklar bilan bir xil lavozimda ishlash, bir xil maosh olish, huqularini himoya qilish imkoniyati mavjudligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqiylardir. Davlat xotin-qizlarning va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda , shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, davlat va jamiyat qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda katta ahamiyatga bermoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan hali ham qizlarning ishga joylashtirishda turli xil qonunbuzarliklar uchrab turibdi. Bunday holatlarni ko'plab sohalarida uchratishimiz mumkin. Buning asl sababi xotin-qizlar orasida o'z huqulari va erkinliklarini yaxshi bilmaydigan, oilaviy qiynoqqa yoki zo'ravonlikka uchragani, qo'rqqoqlik, ojizalik, o'zini himoyasiz his qilishi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatli yetarli darajada bo'lmaganlari ham mavjud. Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida xotin-qizlar qo'mitalari mahallalarda tashkil etilgan.



Davlatimiz rahbari “ Endi har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo’ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o’qishi, davolanishi , bolalari tarbiyasi bo’yicha mening stolimda adolatli raqam bo’ladi”,- deb ta’kidladi. Prezidentimiz tomonidan xotin -qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir ko’plab o’zgarishlar amalga oshirilmogda. “Xotin -qizlarning tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish himoya qilish to’g’risida”gi qonuni va shunga o’xshash qonunlar va qarorlar qabul qilingan. Bu qonunlarda xotin-qizlarning tazyiq va zo’ravonliklardan himoya qilish va huquq va erkinliklarini ta’minlashga doir masalalardan iborat.

Xulosa qiladigan bo’lsam, hozirgi kunda qizlarning ta’lim olish huquqini ta’minlash nafaqat davlatning balki jamiyatning ham hissasi katta. Davlat tomonidan xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini qo’llab quvvatlashga alohida e’tibor qaratilib, ularga qo’shimcha davlat grandlari va kvotalar, imtiyozli kreditlar, hunar o’rganishlari uchun shariotlar yaratib berilyapti. Bu orqali qizlarning davlat va jamiyat rivojiga, kelajakda jamiyatimiz yuksakishiga ulkan hissa qo’shadigan shaxs bo’lib yetishishyapti. Davlatimiz rahbari tomonidan qizlarga berilayotgan e’tibor orqali qizlar o’zlarini iste’dodlarini bemaolol yuzaga chiqara olyaptilar. Buni ta’lim olish sohasida deysizmi yoki boshqa yo’nalishdami qizlar o’zlarining orzularini amalga oshirishga harakat qilishyapti. Bu yo’lda davlatimiz rahbarining xizmatlari katta.

Gender tengligini ta’minlash orqali ayollar va qizlarning davlat va jamiyat ishlarida bemolol ishtirok etish imkoniyati vujudga kelmoqda. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish har bir qiz bolaning o’z qo’lida. Qiz bolani o’qitgan davlat ham jamiyat hech qayerda kam bo’lmaydi aksincha rivojlanadi. Hurmatli Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, qizlarimizni qo’llab quvatlasak, kelajakda ulardan yetuk mutaxassislar yetishib chiqib, davlatimiz rivojiga balki yuksalishiga ulkan hissa qo’shadigan shaxslar bo’lib yetishadilar. Prezidentimizning qizlarga qaratayotgan e’tiborlarini oqlashimiz har bir qiz farzandning burchi deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023.
2. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi Qonun
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayollarni qo’llab- quvatlashga oid farmon va qarorlar (2020-2024)
4. Mirziyoyevning Sh.M Murojaatnomalar va nutqlar to’plami.
5. Karimova M. Jo’rayev A. Gender tengligi asoslari.-Toshkent 2021
6. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi . Xotin-qizlar bandligini va ta’limga doir yillik hisobotlar.

